

“AMNISTIYA VA AFV INSTITUTLARINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA AHAMIYATI”

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti talabasi

Olimov Firdavs Zoxidjon o'g'li

[Tel: +998915410506](tel:+998915410506)

E-mail: olimovfirdavs@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amnistiya va afv institutlarining huquqiy asoslari, ahamiyati, ularning o'zaro farqlari, yuridik oqibatlari hamda bir nechta chet davlatlar qonunchiligida mazkur institutlarning qo'llanilishi, tartibga solinishi batafsil tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются правовые основы, значение институтов амнистии и помилования в Республике Узбекистан, их различия, юридические последствия, а также применение, регулирование этих институтов в законодательстве нескольких иностранных государств.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются правовые основы, значение институтов амнистии и помилования в Республике Узбекистан, их различия, юридические последствия, а также применение, регулирование этих институтов в законодательстве нескольких иностранных государств.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Turkiya, Indoneziya, amnistiya, afv, qonunchilik, jinoyat, asos, insonparvarlik, adolat,

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Турция, Индонезия, амнистия, помилование, законодательство, преступление, основание, гуманность, справедливость.

Keywords: Republic of Uzbekistan, Turkey, Indonesia, amnesty, pardon, legislation, crime, basis, humanity, justice.

Insoniyat jamiyati tarixida jinoyat va jazo institutlari qatori, jinoyatchilarga nisbatan kechirimlilik ko'rsatish, ularni jazodan ozod etish yoki jazoni yengillashtirish amaliyoti ham doimo mavjud bo'lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, amnistiya va afv institutlari jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri sifatida shakllangan va rivojlangan. Ular adolat tamoyilini saqlagan holda, odamiylik, insonparvarlik, ijtimoiy manfaatlar va davlat siyosatining ma'lum strategik maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Bizning ana shunday odamiylik, insonparvarlik qadriyatlarimizga asoslangan siyosatimiz eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Unda kechirishning ikki turi nazarda tutilgan. Oliy hujjatning 109-moddasi 23-bandiga muvofiq Prezident: *birinchisi* amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi; *ikkinchisi* O'zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi.

Xo'sh, amnistiya nima-yu, afv nima?

Amnistiya akti kechirishning bir ko'rinishi bo'lib, Prezidentning taqdimnomasi asosida Oliy Majlis Senati tomonidan ma'lum bir sanalar munosabati bilan, o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra muayyan toifadagi jinoyatlarni sodir etgan muayyan toifadagi shaxslarni kechirish bo'lib, davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan hujjatidir va u sud tartibida qo'llaniladi¹.

Afv esa Prezident tomonidan istalgan vaqtda jazo muddatini o'tayotgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan mahkumlarni jazodan ozod etish yoki boshqacha yengillik berish orqali kechirish.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 68-moddasiga binoan, «jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod etilishi mumkin».

Amnistiya akti ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatiladigan insonparvarlik ifodasi bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad ma'muriy yoki jinoyat-huquqiy ta'sir choralari

¹ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet

qo'llamagan holda ularning ahloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralar qo'llanilgan shaxslar holatini yengillashtirishdir.² Shunday qilib, «JK 68-, 76- va 79- moddalariga asosan amnistiya aktini qo'llashning huquqiy oqibatlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi;
- sudlanuvchining asosiy va o'talmagan qo'shimcha jazodan ozod qilinishi;
- sudlanuvchining asosiy va o'talmagan qo'shimcha jazolari muddatining qisqartirilishi;
- sudlanuvchini jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- sudlanuvchiga jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi;
- jinoyat sodir etgan shaxsdan muddatidan ilgari sudlanganlikning olib tashlanishi»³

Amnistiya akti normativ hujjat bo'lib, yuridik kuchi muayyan demografik, ijtimoiy, jinsiy, huquqiy va boshqa xususiyatli shaxslarga nisbatan (masalan, Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, ayollar, voyaga yetmagan yoki 60 yoshdan oshganlar va hokazo) yoki muayyan bir turdagi jinoyat sodir etgan shaxslarga (masalan, ehtiyotsizlik tufayli, iqtisodiy va h.k.) nisbatan qo'llaniladi. Ya'ni, amnistiya qo'llash uchun shartlar aktning o'zida bo'ladi va faqat ularning mavjudligi yoki aksincha yo'l qo'ymaydigan vaziyatlarning yo'qligida amnistiya u yoki bu shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonuniga muvofiq amnistiya aktini qo'llash masalasi, jinoyat protsessi bosqichidan qat'iy nazar, faqat sud tomonidan hal etiladi.

Sudga, jumladan, quyidagilarni ko'rib chiqish tegishlidir:

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-deksbrdagi "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 16-sonli qarori, 1-bandi

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-deksbrdagi "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 16-sonli qarori, 3-band

ishni sudga qadar yuritish bosqichida — amnistiya aktiga asosan muayyan shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish yoki gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga nisbatan jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi prokuror iltimosnomasini;

dastlabki eshituv bosqichida — taraflarning jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni tugatish to'g'risidagi iltimosnomasini;

sud muhokamasi bosqichida — amnistiya aktiga asosan sudlanuvchiga nisbatan jinoyat ishini tugatish yoki jazo tayinlamasdan ayblov hukmi chiqarish yoxud mahkumni jazodan ozod qilish yoki muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etish, jazoni qisqartirish (kamaytirish) to'g'risidagi masalani.

hukmni ijro etish bosqichida — amnistiya aktiga asosan mahkumni jazodan ozod qilish yoki muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni qisqartirish (kamaytirish) to'g'risidagi prokuror iltimosnomasini.

Jinoyat kodeksi 77-moddasiga muvofiq, agar ayblov hukmi chiqarilgan va unda shaxsga nisbatan jazo tayinlangan bo'lsa, shaxs sudlangan hisoblanadi. Biroq qonunga ko'ra, shaxsga nisbatan jazo tayinlangan hollarda ham, agar sud JK 69-71-moddalariga asosan, shuningdek amnistiya aktini qo'llagan holda hukmda uni ushbu jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida qaror qilgan bo'lsa, shaxs sudlanmagan hisoblanadi.

Shaxsga nisbatan amnistiya aktiga asosan jazo tayinlanmasdan ayblov hukmi chiqarilgan holda ham u *sudlanmagan* hisoblanadi.

Afv etish esa mahkumni jazodan to'liq yoki qisman ozod etadigan yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtiradigan yoxud sudlanganlikni olib tashlaydigan insonparvarlik akti hisoblanadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, afv amnistiya bilan farqli o'laroq faqat jinoiy javobgarlikka tortilganlar va jazosini o'tayotgan mahkumlarga nisbat qo'llaniladi va bu tartib "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Afv etish muayyan mahkunga nisbatan individual tartibda amalga oshiriladi hamda uni oqlaydigan va u tomonidan jinoyat sodir etganlik faktini bartaraf qiladigan holat hisoblanmaydi⁴.

Afv etish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z ixtiyoriga ko'ra istalgan mahkumni yoki jazoni o'tab bo'lgan shaxsni afv etishi mumkin. Afv etish O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan hukm qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.⁵

Afv etish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish;
- jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish;
- sudlanganlikni olib tashlash.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma mahkum yoki jazoni o'tab bo'lgan shaxs, shuningdek, qonun hujjatlari bilan afv etish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish huquqi berilgan shaxs (organ)lar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozma shaklda beriladi. Agar iltimosnoma qonun hujjatlari bilan afv etish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish huquqi berilgan shaxs (organ) tomonidan berilgan bo'lsa, mahkumning yozma roziligi olinishi shart.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan keyin quyidagi muddatlarda berilishi mumkin:

a) umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik

⁴ "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 2-band 2-xatboshi

⁵ "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 3-band

uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin;

b) uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o'n besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin;

v) boshqa jazoga hukm etilgan shaxs tomonidan o'talgan (ijro etilgan) jazo muddati (hajmi)dan qat'i nazar, g) ilgari amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan, shartli hukm qilingan, muddatidan ilgari shartli ravishda, amnistiya akti va afv etish asosida jazodan ozod qilingan, shuningdek, o'ziga nisbatan yengilroq jazo bilan almashtirish qo'llanilgan hamda yana qasddan jinoyat sodir etgan shaxs, xuddi shuningdek, o'ta xavfli retsdivist tomonidan u tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin.

Amnistiya va afv institutlari turli davlatlarda turlicha qo'llaniladigan institutlardandir.

Xususan, **Turkiya** Konstitutsiyasining 87-moddasiga ko'ra, umumiy amnistiya va maxsus amnistiya e'lon qilish vakolati faqat Turkiya Buyuk Millat Majlisiga (TBMM) berilgan. Shaxsga nisbatan afv qilish esa Prezident vakolatiga kiradi.⁶

*Umumiy amnistiya*da shaxs jinoyiy javobgarlikdan ozod qilinadi va sudlanmagan hisoblanadi. Jinoyat faktining o'zi tugatiladi va shaxs jinoyat sodir etmagan hisoblanadi. Jinoyatga oid barcha huquqiy oqibatlar bekor qilinishini nazarda tutadigan ushbu amnistiya aktini qabul qilish uchun TBMM a'zolarining 3/5 qismi ovoz berib tasdiqlashi talab qilinadi⁷

⁶ Türkiye Cumhuriyeti Anayasası. 9.11.1982. <https://www.anayasa.gov.tr> Madde 104

⁷ Türkiye Cumhuriyeti Anayasası. 9.11.1982. <https://www.anayasa.gov.tr> Madde 87

Maxsus amnistiya faqat jazoning o'ziga ta'sir qilinadi; jinoyiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi, faqat jazo boshqasiga o'zgartiriladi yoki yengillashtiriladi⁸.

Turkiya Respublikasi Prezidenti, sog'lig'i jiddiy ravishda yomonlashgan mahkumlarning jazolarini, sog'liq holatini inobatga olgan holda, afv etishi mumkin.

Afv xususiyatlari:

- sog'liq holati bilan bog'liq asosga tayanadi;
- individual xususiyatga ega (har bir shaxsga alohida qo'llaniladi);
- Adli Tibbiyot Instituti tomonidan tayyorlangan tibbiy ma'lumotnomalarga asoslanadi.

Indoneziya Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra Prezident quyidagi vakolatlarga ega:

- mahkumlarni afv (grasi) etadi
- amnistiya va reabilitatsiya to'g'risida qaror chiqaradi va uni Davlat parlamenti (Dewan Perwakilan Rakyat) ga taqdim qiladi.⁹

Indoneziyada amnistiya parlament tomonidan umumiy va individual ko'rinishda chiqariladi va u ma'lum bir jinoyatlar uchun jazo va uning huquqiy oqibatlarini bekor qiladi.

Afv Indoneziya Prezidentining qarori asosida amalga oshiriladi. Afv Shxsnini jinoyiy javobgarlikdan to'liq ozod etmaydi. U faqat jazonining muddatini kamaytiradi, jazoni yengilrog'i bilan almashtiriladi, yoki jazodan ozod qiladi ammo sudlanganlik holati saqlanib qolinadi.¹⁰

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, amnistiya yoki afv etilganlar o'z uylariga kirib borar ekan, ularning yaqinlari, ayniqsa, farzandlari ko'zlaridagi cheksiz quvonchni hech narsaga qiyoslab bo'lmaydi. Aslida, amnistiya va afv etishdan ko'zlangan maqsad xato qilganni faqat kechirish emas, balki ularning oilalariga ham ro'shnolik olib kirishdir. Bu chinakam insonparvarlik namunasi, yuksak bag'rikenglik

⁸ "Ceza ve Güvenlik Tedbirlerinin İnfazı Hakkında" Kanun. Sayı 5275. <https://www.mevzuat.gov.tr>

⁹ Undang-Undang Dasar Negara Republik Indonesia. 1945. <https://www.mkri.id> Pasal 14

¹⁰ Cammack, Mark E. The Indonesian Legal system: Prospects and Problems, Asian-Pacific Law. Policy Journal, 2002

ifodasidir. Zero, Amnistiya va afv institutining mohiyatida ham ana shu ulug'vor g'oya mujassam

Ushbu insonlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun qilinayotgan bunday xayrli ishlar ezgulikning oliy namunasi ekanini ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. Qonunchilik milliy bazasi/ <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 2018-yil 8-maydagi PF-5439-son. Qonunchilik milliy bazasi/ <https://lex.uz/mact/-3725214>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 22-deksbrdagi "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 16-sonli qarori. Qonunchilik milliy bazasi/ <https://lex.uz/docs/-1591984>
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet
5. Türkiye Cumhuriyeti Anayasasi. 9.11.1982. <https://www.anayasa.gov.tr>
6. "Ceza ve Güvenlik Tedbirlerinin İnfazı Hakkında" Kanun. Sayı 5275. <https://www.mevzuat.gov.tr>
7. Undang-Undang Dasar Negara Republik Indonesia. 1945. <https://www.mkri.id>
8. Cammack, Mark E. The Indonesian Legal system: Prospects and Problems, Asian-Pacific Law. Policy Journal, 2002
9. www.lex.uz
10. www.gov.tr
11. www.mkri.id